

Beginqulov Zarif Axmadovich

O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Samarqand filiali "Sport psixologiyasi,
ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar" kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi
Email: zarifbeginqulov77@gmail.com

TA'LIM MUASSASALARIDA JADIDCHILIKNI O'QITILISHNING ZARURATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining asosiy g'oya va maqsadlari, barkamol avlod tarbiyasida Turkiston jadidchilik namoyondalarining ma'naviy me'rosining ahamiyati, yoshlar ma'naviy dunyosini yuksaltirishda ta'lim muassasalarida jadidchilikni o'qitilishining dolzarbligi va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, me'ros, renessans, yangilik, ma'rifatparvarlik, ta'lim, tarbiya, maktab.

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ ДЖАДИДИЗМА В УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация: В данной статье будут рассмотрены основные идеи и цели Джадидитского движения, значение духовного наследия туркестанских джадидистских деятелей в воспитании гармоничного поколения, актуальность и значение преподавания джадидизма в образовательных учреждениях для поднятия духовного мира молодежи.

Ключевые слова: джадидизм, наследие, возрождение, инновации, просвещение, образование, воспитание, школа.

THE NEED TO TEACH JADIDISM IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract: This article will consider the main ideas and goals of the Jadidist movement, the importance of the spiritual heritage of Turkestan Jadidist figures in the upbringing of a harmonious generation, the relevance and importance of teaching Jadidism in educational institutions for the upliftment of the spiritual world of youth.

Keywords: Jadidism, heritage, renaissance, innovation, enlightenment, education, upbringing, school.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida shunday ta'kidlagan edilar: O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o'z mablag'lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o'qishga yubordilar. Ularning bu olijanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to'lqinga aylandi.

O'ylaymanki, tarixda ikki buyuk Rennessansga zamin bo'lgan mintaqamizda uchinchi Rennessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yobga chiqarishga imkon bermadi.

Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olamiz [1].

Ma'lumki, "Jadid" so'zi "yangi", "yangilik" ma'nolarini anglatadi. Shuning o'zidanoq XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida shakllangan yangi, ya'ni jadidchilik harakatining ilmiy-ma'rifiy asosli, kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo'lgan harakat deyish mumkin. Turkiston jadidlari o'z faoliyatlarida o'lkada umuman yangi dunyoqarashni shakllantirish, xalqning ijtimoiy-siyosiy

ongini yanada yuksaltirish, mahalliy xalqlarini ma'rifatli qilish, savodxonlik darajasini oshirish, maktablar ochib, boshqa usuldagi ta'limni joriy qilish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, yosh avlodni o'qimishli qilish orqali yurt mustaqilligiga erishish, ta'lim, ijtimoiy tuzilma va diniy urf-odatlarini modernizatsiya qilish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish hamda jamiyatni taraqqiy ettirishga qaratilgan g'oyalarni ilgari surgan. Ular bu yo'lda o'zlaridan keyingi avlod taqdiri uchun jon-jahdlari bilan kurashdilar.

Jadidlar XIX asr oxiri – XX asr boshida musulmon modernist islohotchilari bo'lgan. Ular o'zini "taraqqiyparvar", "ziyoli" yoki faqat "Yoshlar" deb atagan kishilar edi. Jadidlar ta'lim sohasini isloh qilish hamda maktablarda "usul ul-jadid" yoki "yangi usul"ni tatbiq qilish va rivojlantirishga urinishgan. Bu yo'lda ular imkoniyatida mavjud jamiki resurslar (iste'dodlari, shaxsiy mablag'lari, uy-joylari, siyosiy va madaniy institutlar, matbuot hamda teatr, ma'rifat uylari va hokazo)dan to'liq foydalandilar, hatto aziz umrlarini ham fido qilishdi. Avval chor hukumati, keyin sho'rolar davlati, ichki qora kuchlar – qadimchi va johil ulamolar tomonidan ko'rsatilgan zulm-zo'ravonliklar, tazyiqlar, quvg'inlar, suiqasdlarga qaramay, jadid bobolarimiz o'zlari tanlagan yo'ldan qaytmadilar [8].

Taraqqiyparvar bobolarimiz bizni demokratik mustaqil mamlakatda erkin va farovon yashashimiz uchun qo'llaridan kelgancha, o'zlaridan keyingi avlod taqdiri uchun jon-jahdlari bilan kurashdilar, bunday ma'rifatparvar, xalqparvarlarimizga qancha shukronalar aytsek kam, faqat bizning oldimizdagi birdan bir vazifa ulardan qolgan ma'naviy meroslarni o'qib-o'rganish, avaylab-asrash va kelgusi avlodga yetkazish va eng asosiysi, yoshlarga to'g'ri talim-tarbiya berish uchun jadidlarimizning meroslarini qay darajada kerakli ekanligini tushunishdir [7].

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilarda o'z aksini topdi: Turkistonni o'rta asrga xos qoloqlik, feodal tarqoqlik, diniy xurofotlardan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzish. Bu g'oya va maqsadlar 1917—1924-yillarda "Turkiston muxtoriyati" (1917-yil noyabr–1918-yil fevral), Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari davrida (1920–1924-yillar), qisqa muddatda va qisman bo'lsada amalga oshirigan edi [4]. Ma'rifatparvarlar yoshlar va Vatan taqdiri masalasiga alohida e'tibor qaratgan holda, o'zlari tashkil etgan yangi usuldagi maktablardagi ta'lim va tarbiya orqali yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda g'oyaviy jipslashtirish, ularda o'lka taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashni singdirishga harakat qilganlar. O'z zamonasining ilg'or namoyondalari bo'lgan Turkiston jadidchilik harakatidagi asosiy g'oyaviy-nazariy yo'nalish Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ularning ilg'or tashabbus va harakatlari o'sha davr jamiyat hayotida kuchli aks sado bergan. Jadidlar bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'ldan borishni taklif etganlar.

Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy, ma'naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy, bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlaridan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan, chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlarni safarbar etib, ularning siyosiy-ijtimoiy ongini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda [6]. Ta'lim muassasalarida Turkiston jadidlari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarni o'rganish yosh avlodga yurt mustaqilligi, ozodlikni qadriga yetishda, ilm-ma'rifat jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini anglab olishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarining o'quv adabiyotlariga kiritilgan Turkiston jadidchilik harakati namoyondalarining o'lmas g'oyalari o'quvchi va talaba shaxsini mukammal kamol toptirishda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, yoshlarni siyosiy-madaniy hayotga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, o'zlashtirilgan

bilimlarini yanada rivojlantirishda, ilmiy, o'qimishli, ma'rifatli bo'lib voyaga yetkazishda, faollashtirishda, zamonaviy fanlarni egallashda, sog'lom va baquvvat farzandlarni tarbiyalashda, kundalik hayotdan ogoh bo'lishda dolzarblik kasb etmoqda.

Umuman olganda, Jadid bobolar tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni o'rganish milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari dadil odimlashimizda, globallashtirish, integratsiyalashuv va axborotlashuv sharoitida yoshlarimizni siyosiy ongi va madaniyatini, ma'naviy-ma'rifiy tafakkurini rivojlantirishda, fikrlar olamini boyitishda, jonajon Vatanimiz ravnaqi yo'lida g'ayrat, shijoat, ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirishda, jaholatga qarshi - ma'rifat yo'lini chuqur anglashda, yuksak ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi xalq qiluvchi qudrat ekanligini bilishda, har tomonlama yetuk raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlarida ham muhim ma'no va ahamiyat kasb etadi [5,83]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqbolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi [2].

Shu nuqtai nazardan jadidlar faoliyatini nazariy va amaliy ahamiyatini quyidagicha belgilashimiz mumkin: birinchidan, jadidlar harakati o'zligimizni anglashda, tarixiy haqiqatni bilishimizda hamda ilm-ma'rifat qanday buyuk qudratga egaligini anglashimizda va yoshlarga anglatishimizda muhim ahamiyatga ega; ikkinchidan, jadidlar harakati va undagi ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar Yangi O'zbekiston taraqqiyoti g'oyalari bilan uzviylikka ega bo'lib, millat kamoloti, shaxs barkamolligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi; uchinchidan, jamiyat ma'naviy salohiyatining yuksaltiruvchi omillar tizimida jadidlar tomonidan ilgari surilgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy g'oyalarining o'rni beqiyos; to'rtinchidan, jadidlarning ijtimoiy-siyosiy g'oyalarini jamiyat taraqqiyoti manfaatlari nuqtai nazardan ilmiy - falsafiy tamoyillar asosida tahlil qilish, jamiyat hayotidagi o'rnini tavsiflash, taraqqiyoti bilan funksional aloqadorligi va taqozolanganligini o'rganish muhimdir; beshinchidan, yoshlarni siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda, ularda fidoiylik, vatanparvarlik, mardlik, shijoat kabi tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishda jadidlar tomonidan ilgari surilgan ilg'or o'lmas g'oyalarining ahamiyat beqiyosdir [5,86]. Turkiston jadidchilik harakati namoyondalarining amalga oshirgan ishlari oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda, bugungi yosh avlodning intellektual salohiyati, dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ularning bilim va savodxonligini oshirishda, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda, ularni turli xil yot g'oyalardan saqlashda, o'zligini anglashda, zamonaviylikka intilishda, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda, hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashda, o'tmish merosimizdan samarali foydalana olishda muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun jadidchilikni o'qitish jarayonida mazkur harakatning mohiyatini chuqur anglash, shu orqali yosh avlodning bugungi hayotimizning qadriga yetishini, ma'rifatparvarlardan qolgan boy ma'naviy merosni o'qib-o'rganish, avaylab-asrash va kelgusi avlodga yetkazish, o'quvchi va talabalarning milliy ongini yanada o'stirish, o'z vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usini mustahkamlash, axloqiy yuksaltirish, mas'uliyat hissini oshirish, ularni milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik, insoniylik, yuksak ma'naviyat kabi oliyjanob an'analar ruhida tarbiyalash, ularga bugungi davr talablari asosida talim-tarbiya berishimiz uchun jadid mutafakkirlarimizning merosini qay darajada kerakli ekanligini tushunib olishimiz lozimdir. Q.Nazarov fikricha, "Jadid g'oyasi va falsafasi, jadidchilik harakati va amaliyoti ana shunday jasoratli ziyolilar uchun nafaqat asosiy tayanch manbalardan biri, balki bugungi tafakkur yangilanishi jarayoni uchun muhim zaruriy qo'llanma, har birimiz uchun esa ibrat namunasi va ma'naviy mas'uliyat hissini mustahkamlash omili bo'lishi zarurligi davr talabiga aylandi.

Jadidlarning konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlarning genetik asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki ular siyosiy dasturlarida umuminsoniy xususiyatlarni tarannum etuvchi, erk va ozodlik, adolat va mustaqillik g'oyalarini olg'a suradi. Bu esa jadidlarning mustaqilligimiz uchun g'oyaviy asos bo'la oladigan tashabbuslaridan darakdir" [3]. Bu esa Turkiston jadidlarining faoliyati, ularning boy ma'naviy me'rosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini anglatadi.

Jadid ma'rifatparvarligining ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy g'oyalarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan chuqur o'rganish va uni o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rgatish muhim tarbiyaviy ahamiyatga egaligini alohida qayd etish zarur. Ta'lim muassasalarida jadidchilikning o'qitilishi nafaqat o'quv jarayonida yangilanishni ta'minlaydi, balki yosh avlodni tarbiyalashda muhim jihatlarni taqdim etadi. Bu, o'z navbatida, kelajakda raqobatbardosh, ilm-fan va madaniyatga intiluvchi shaxslarni sifatli tarbiyalashga yordam beradi.

Jadidchilikni o'rganish yosh avlodda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga ham katta hissa qo'shadi. Bu jarayonda o'quvchi va talabalarda ilmiy tafakkur rivojlantiriladi va ularni jahon madaniyati bilan yaqindan tanishtirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ularda qadimiy o'zbek madaniyatiga nisbatan qiziqish uyg'otiladi. Jadidchilik tarixini mukammal o'rganish o'quvchi va talabalarga o'z vatani va millatiga nisbatan faxr va iftixor hissi hosil qilishga yaqindan yordam beradi. Bu millatning ravnaqini ta'minlash va kengusi avlodlarni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kunda Turkiston jadidlarining ma'naviy me'rosini chuqur o'rganish va tadqiq qilish hamda uni o'sib kelayotgan yosh avlodga mukammal o'rgatish, ularga jadidchilik namoyondalari haqida atroflicha bilimlar berish ijtimoiy zaruradir. Bu dolzarblik esa jadidchilik bo'yicha o'quv-metodik vositalarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidan. 2023-yil 6-mart. <https://president.uz/oz/lists/view/6007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaati. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" xalqaro konferensiya materiallari [to'plam] / mas'ul muharrir, professor Temur Xo'ja o'g'li. – Toshkent: 2024, 4-bet.
3. Nazarov Q. Jadid falsafasi. Yangi O'zbekiston gazetasi, 2024-yil 16-yanvar, № 11 (1072), 3-bet.
4. Oblomurodov N., Hazratqulov A., Tolipov F., Tursunov N. O'zbekiston tarixi. - T.: "Fan va texnologiya", 2011, 194-bet.
5. Xudaynazarov S.X., Berdikulova S.A. Jadidlar ma'rifat, ozodlik, taraqqiyot kuychisi. "Jadidlar merosining bugungi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdagi ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, – Toshkent: O'R QK Akademiyasi, 2024. – B.83-86.
6. Davlatxon Rustamova Toyirjon qizi, Soliyeva Sarvinozxon Azizjon qizi. Pedagog faoliyatida jadid ma'rifatparvarlari merosini o'rganishning ahamiyati // International scientific and practical conference "ACTUAL ISSUES OF PRIMARY EDUCATION: PROBLEMS, SOLUTIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS" April 26, 2024.
7. Shaturayeva S.T. Bo'lajak tarix o'qituvchilariga jadidlar ilmiy me'rosini o'rgatish metodikasini takomillashtirish. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY Ilmiy-nazariy va metodik jurnal–2024, №7, 192-bet
8. https://uza.uz/oz/posts/jadidlar-merosini-organish-anglash-ildizi-baquvvat-daraxtg-aylanish-imkonidir_457334